


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**AN INTEGRATIVE APPROACH TO ONOMASTIC UNITS*****Dilrabo Andaniyazova****Doctoral student, Ph.D**Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Institute of Uzbek language, literature and folklore**Uzbekistan, Tashkent**E-mail: andaniyazova1406@gmail.com***ABOUT ARTICLE**

Key words: onomastics, onomastic unit, anthroponyms, lingvopoetics, literary text, sociolinguistics.

Received: 05.06.23**Accepted:** 07.07.23**Published:** 09.07.23

Abstract: In world linguistics today, the approach to onomastic units in the literary text is dominated by integrative studies, including the study of allusive nouns, onomastic metaphors, onomastic scale of literary texts, intertextual aspects of nouns, as well as lingual-linguistic is a topical issue. Onomastic units appear in different contexts in a literary text. These units are sometimes simple, in their sense, sometimes complex, and associated with a variety of associations in the text, in accordance with the writer's artistic intent. The unique onomastic units in the literary text are being studied in linguistics within the framework of the principles and approaches of interdisciplinary interrelationships that have been developing rapidly in recent decades. In particular, onomastic units should be studied, first of all, on the basis of the principles of the linguopoetic approach. This article examines the importance of studying uzbek anthroponyms in the principles of interdisciplinary relations, the role of ethnocultural factors in anthroponyms, polynomial anthroponyms, their place in the literary text.

ONOMASTIK BIRLIKLARGA INTEGRATIV YONDASHUV***Dilrabo Andaniyazova****Doktorant, PhD**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti**O'zbekiston, Toshkent**E-mail: andaniyazova1406@gmail.com*

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit soʻzlar: onomastika, onomastik birlik, antroponim, lingvopoetika, sotsiologiyistika.

Annotatsiya: Bugungi kunda dunyo tilshunosligida badiiy matndagi onomastik birliklarga yondashuvda integrativ xarakterdagi ilmiy ishlar ustuvor boʻlmoqda. Ularda allyuziv nomlar, onomastik metafora, badiiy matnning onomastik koʻlami, nomlarning intertekstuallik bilan aloqador jihatlari kabi muammolarni tadqiq qilish, shuningdek, onomastik birliklarning lingvopoetik, lingvokulturologik omillarini ochib berish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Onomastik birliklar badiiy matnda turli holatlarda namoyon boʻladi. Bu birliklar yozuvchining badiiy niyatiga muvofiq tarzda matnda baʼzan sodda, oʻz maʼnosida, baʼzan murakkab va turli assotsiatsiyalar bilan birga ishtirok etadi. Gʻoyat oʻziga xos tarzda namoyon boʻluvchi badiiy matndagi onomastik birliklar tilshunoslikda soʻnggi oʻn yilliklarda jadal rivoj topayotgan fanlararo aloqadorlik tamoyillari va yondashuvlari doirasida oʻrganilmoqda. Xususan, onomastik birliklar, birinchi navbatda, lingvopoetik yondashuv tamoyillari asosida tadqiq qilinmogʻi zarur.

Ushbu maqolada oʻzbek antroponimlarini fanlararo aloqadorlik tamoyillarida oʻrganishning ahamiyati, antroponimlarda etnomadaniy omillarning oʻrni, polinim antroponimlar, ularning badiiy matndagi oʻrni tadqiq etilgan.

ИНТЕГРАТИВНЫЙ ПОДХОД К ОНОМАСТИЧЕСКИМ ЕДИНИЦАМ

Дильрабо Анданиязова

докторант, PhD

Академия наук Республики Узбекистан Институт узбекского языка, литературы и фольклора

Узбекистан, Ташкент

E-mail: andaniyazova1406@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: ономастика, ономастическая единица, антропоним, лингвопоэтика, социолингвистика.

Аннотация: Сегодня в мировой лингвистике приоритетное место занимают научные работы интегративного характера в подходе к ономастическим единицам в художественных текстах. Актуальными вопросами считаются исследования таких проблем, как аллюзивные имена, ономастические метафоры, ономастический охват художественного

текста, аспекты имен, связанные с интертекстуальностью, а также выявление лингвопоэтических, лингвокультурологических факторов ономастических единиц. Ономастические единицы появляются в художественном тексте в различных падежах. Эти единицы принимают участие в тексте в соответствии с художественным замыслом писателя, иногда простые, по своему смыслу, иногда сложные и с различными ассоциациями. Ономастические единицы в художественном тексте, проявляющиеся весьма своеобразно, изучаются в рамках междисциплинарных принципов и подходов, бурно развивающихся в языкознании последних десятилетий. В частности, необходимо изучать ономастические единицы, прежде всего, исходя из принципов лингвопоэтического подхода.

В данной статье изучается важность изучения узбекских антропонимов в принципах междисциплинарности, роль этнокультурных факторов в антропонимах, полинимных антропонимах, их место в художественном тексте.

KIRISH

Onomastika – milliy qadriyatlarni aniq dalillar asosida o‘rganuvchi, ota-bobolar o‘tmishi, ma’naviy va diniy qarashlari, biz yashab turgan makon va zamon haqida chuqur tasavvur beruvchi fan, o‘zlikni anglash quroli bo‘lgan murakkab va ko‘p tarmoqli hodisa. Shuning uchun u doimo olimlar e’tiborida. Turkologiyada, umuman, dunyo tilshunosligida ham onomastika – nomshunoslik masalalari yuzasidan yirik tadqiqotlar olib borilgani fanga ma’lum.

Ma’lumki, onomastik leksikaning eng keng tarqalgan va boy struktur-semantik xususiyatlarga ega bo‘lgan qismi antroponimlar, ya’ni kishi nomlaridir. Kishi nomlari milliy tafakkurning, xalq hayot tarzining, orzu va istaklarining tarjimoni bo‘lib, g‘oyat rangorang, keng faoliyat maydoniga egadir. Bu birliklar nomlash vazifasidan tashqari ism sohibiga munosabatni ham o‘zida aks ettiradi. Kishi ismlarining badiiy adabiyotdagi qo‘llanilishi ham faqatgina qahramonlarni nomlashga emas, balki turli uslubiy-badiiy maqsadlarni ifodalashga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Keyingi yillarda atoqli otlar lingvistik tadqiqotlarda besh asosiy muammoga ajratib o‘rganilyapti: nazariya bilan shug‘ullanuvchi sof lingvistik (masalan, antroponimlar tipologiyasi, tasnifi kabi) va uning amaliy jihatini o‘rganuvchi (masalan, atoqli otlar lug‘ati, tarjimasi kabi)

yoʻnalish; sotsiolingvistika bilan shugʻullanuvchi yoʻnalish; psixolingvistik; etnolingvistik (yoki lingvomadaniy) va lingvopoetik (Omakayeva, 2008: 38). Amaliy jihatdan bularning barchasi yetarli darajada oʻrganilgan emas, baʼzilari ustida endi ishlar boshlanmoqda. Ushbu maqolada antroponimlarning ayrim lingvomadaniy va lingvopoetik xususiyatlariga diqqat qaratamiz.

Har bir xalqda qadimdan farzandga ism qoʻyishning oʻziga xos yoʻl-yoʻriq va anʼanalari mavjud. Antroponimlarda muayyan bir shaxs yoki etnosning tarixiy va ijtimoiy ahvoli haqidagi maʼlumotlar kodlangan boʻladi. Shu jumladan, oʻzbek xalqining antroponimlari ham lingvomadaniy jihatdan beqiyos maʼlumotlarni oʻzida jamlagan vositalardir. Qozoq xalq antroponimikasini tadqiq qilgan tilshunos Farida Ashimxanova bu xususda quyidagi fikrlarni ilgari surgan: “Ism farzand tugʻilgandan yetti kun oʻtib qoʻyiladi. Dastlabki ismlar qulay va kundalik ishlatiladigan soʻzlardan tanlanadi. Masalan: *Boʻribay, Qoʻylibay, Jetibay, Altin, Kumis, Kumisbek, Bektay, Baris, Qutjan, Temirbek, Kunbek* va hokazo. Koʻrinib turganidek, mazkur ismlarning qoʻyilishida etnomadaniy motivlar mavjud. Shuningdek, oy, quyosh, togʻ, daryo, koʻl kabi tabiiy jismlarga topinish bilan bogʻliq mifologik tushunchalar negizida shakllangan ismlardir: *Aysulu, Ayxan, Ayday, Kunay, Kunbek, Aykun, Tautay, Taubay, Koʻlbay, Koʻltay, Boʻribay* va boshqalar” (Ashimxanova, 2007: 93).

Antroponimlar ijtimoiy hodisa sifatida sotsiomadaniy tadqiqotlar doirasida ham oʻrganilishi zarur. Chunki antroponimlar tabiatan jamiyat aʼzolarini bir-biridan ajratish ehtiyojidan kelib chiqqan. Bu haqda Ozarbayjon tilshunosi Chobanov shunday fikrni ilgari suradi: “Ismlarning tarixi oʻsha ismni qoʻllayotgan xalqning tarixi qadardir. Ilk inson jamoasi - oila va qabila tizimi paydo boʻlganda oila yoki qabila aʼzolarini bir-biridan ajratish, farzandlarni bir-biridan farqlash ehtiyojini tuygan. Boshqacha aytadigan boʻlsak, oilada yoki qabilada yaqinlik (unsifat) va uzoqlik (muxtalif) munosabatida boʻlgan kishilarni oʻzaro farqlash ehtiyoji oʻrtaga chiqadi. Bu ehtiyojni qoplamoq uchun jamoadagi kishilarga turlicha murojaat qilish kerak boʻlgan va har biriga alohida nom berish zaruratga aylangan. Ismlar kishilik jamiyatining paydo boʻlishi bilan oʻrtaga chiqqan va jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat bilan birga inkishof etmoqdadir. Demak, antroponimlar xalq tarixi bilan chambarchas holda shakllanadi.” (Chobanov, 1983: 76).

Antroponimlarni fanlararo aloqadorlik doirasida oʻrganish masalasiga bugungi kunda turkologiya va dunyo tilshunosligida jiddiy eʼtibor berilmoqda. Qolmiq tili antropologiyasi boʻyicha tadqiqot olib borayotgan E.U.Omakayevaning taʼkidlashicha, qolmiq tili antroponimiyasi bugungi kunda rus, qolmiq va boshqa xalq tilshunoslari tomonidan lingvomadaniy aspektda, ijtimoiy-psixologik omillar va muloqot tili xususiyatlari bilan birga keng oʻrganilmoqda. “Fanlararo aloqadorlikdagi tadqiqotlarning faollashuvi tilshunoslik va hozirgi qolmiq onomastikasi chegaralarining kengayishi kerakligidan darak bermoqda...” (Omakayeva, 2008: 45).

Antroponimlar tadqiqida quyidagi yondashuvlar muhim hisoblanadi:

1. **Tarixiylik nuqtayi nazaridan.** Bunda, materialning “eskilik-yangilik” jihati tekshiriladi. Qaysi davrda ko‘p qo‘llanilgani, eng eski namunasi qaysi manbada, qaysi davrda uchrashi kabilar tahlilga tortiladi. Masalan: *Mels, Telman, Ernest, Bernora, Berta, Zoya, Klara, Mayya, Marat, Mauzer, Moskovboy, Elbrus, Flora, Fidel* kabi antroponimlar o‘zbek jamiyatida sotsiopolitik mafkuraning ommalashishi natijasida paydo bo‘lgani aniq.

2. **Etnomadaniy jihatdan.** Antroponimning qaysi etnosning lisoniy fondiga taalluqli ekanligi aniqlanadi. Onomastikaning xalqaro miqyosdagi ommalashgan jihati shu nuqtada yaqqol ko‘rinadi. Masalan, mashhur shaxslarning ismi orqali ularning etnomadaniy maqomini aniqlash, qaysi irq, millat va elatga mansubligini bashorat qilish amaliyoti ko‘p kuzatiladi. Bunda, albatta, etimologik tahlilga murojaat qilinadi. Etimologik jihatdan u yoki bu ismning qaysi millat tiliga mansubligi aniqlashtiriladi.

3. **Lingvomadaniy jihatdan.** Keng ma’nodagi Yer yuzidagi har bir xalq, soni va yashash tarzidan qat’i nazar, alohida bir madaniyat hisoblanadi. O‘sha madaniyatga taalluqli har qanday unsur ayni paytda lingvomadaniy xazinani boyitadi. Antroponimlar onomast olim V.A.Nikonov ta’kidlaganidek, “Antroponimiya ma’lum bir xalqning etnik tarkibini va o‘tmishdagi migratsiyasini belgilashda, yozma obidalarining lokal va davr bilan bog‘liq xususiyatlarini aniqlashtirishda qimmatbaho manba vazifasini o‘taydi. Antroponimika tildagi ba’zi xususlarni faqat tilshunoslik metodlari bilan hal qilib bo‘lmaydigan xususlarda etnografiya, tarix, sotsiologiya, huquq kabi fanlar bilan bir butunlikni hosil qiluvchi alohida ostki tizimni (podsistema) shakllantiradi” (Nikonov, 1974: 87).

Antroponimlarda muayyan bir shaxs yoki etnosning tarixiy va ijtimoiy ahvoli haqidagi ma’lumotlar kodlangan bo‘ladi. Shu jumladan, o‘zbek xalqining antroponimlari ham lingvomadaniy jihatdan beqiyos ma’lumotlarni o‘zida jamlagan vositalardir. O‘zbek xalqida qadimdan farzandga ism qo‘yishning o‘ziga xos yo‘l-yo‘riq va an’analari mavjud. Ularga og‘ishmay rioya qilishimiz natijasida necha asrlardan beri o‘zligimizni yo‘qotmay kelmoqdamiz. Hatto diniy e’tiqodning o‘zgarishi ham ko‘plab ismlarimizdagi o‘zimizga xos izlarni o‘chirib tashlay olmagan. Masalan, *Oybika, Oysuluv, Oyxon, Quyoshxon, Bo‘riboy, Boybo‘ri, Avazxon, Go‘ro‘g‘li, Burgut, Qaldirg‘och, Toychi, Tangriberdi, O‘rmon, Toshboy, Bolta, Tesha* va boshqa ismlarda islom dinidan oldingi etnomadaniy motivlar saqlanib qolgan. Bunday ismlarning genezisi haqida nomshunos olim Ernest Begmatov “*Tangribergan, Tangriberdi, Tangriqul, Quvonchbek, Oyzoda, Oyxon* kabi ismlar osmon, quyosh va oy kulti bilan aloqador bo‘lib, ajdodlarimizning yer va ko‘k “tangri”larga sig‘inganligini yaqqol ko‘rsatuvchi misollardir” degan fikrni ilgari surgan edi. Turkman tili tarixi bo‘yicha qimmatli tadqiqotlarni amalga oshirgan Z.B.Muhammedova ham bunday ismlar haqida o‘z fikrini shu tarzda bildirgan edi: “Bizningcha, yog‘inlarning, quyoshning,

oyning, o'simliklar va hayvonlarning nomlari ham qadimdan atoqli ot hisoblangan." (Muxammedova, 1973: 79). Ya'ni tadqiqotchi sanab o'tilgan predmetlarning nomi alohida ma'budlarning ismi bo'lgan, degan fikrni ilgari suradi.

Fanda polinim antroponim tushunchasi mavjud. Jonli tilda bir kishiga oid bir necha ismning qo'llanilishi ko'p kuzatiladi. Boshqacha aytganda, kishining rasmiy va g'ayri rasmiy ismlarining jami polinim antroponimlarni tashkil qiladi. Masalan, ko'p hollarda kishining asl ismi o'rniga oiladan kimdir erkalab yoki turli etnomadaniy sabablar tufayli farqli ism bilan ataydi va shu nom uning ismiga aylanib ketadi. Tilshunos A.Omonturdiyev "ko'p ismlilik" hodisasini evfemiyaga bog'lab tushuntiradi (Omonturdiyev, 2009: 27) Bunga oid eng yaxshi misolni Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida uchratishimiz mumkin: "O'zbekda axir har bir erkak o'z xotinini – o'z halol juftini! – qizi yo o'g'lining nomi bilan atab chaqiradi. *O'z xotinining ismini aytib chaqirish yaramaydi. Xotinining ismi Maryam, qizining ismi Xadicha bo'lsa, mo'min-musulmon – sharmu-hayo yuzasidan bo'lsamikan? – xotinini "Xadicha" deb chaqiradi. Aksar ona-bola baravar "labbay!" deydi, shundayda oilaning haqiqiy egasi bo'lgan ota: "kattangni aytaman, kattangni!" deydi. Hatto shunda ham "Maryamni" demaydi... Bizning so'fi mo'min-musulmonning bu urfiga ham amal qilmaydi, u o'z halol jufti Qurvonbibini hammavaqt "fitna" deb chaqiradi: "Fitna, sallamni ber!", "Fitna, qiz o'lguring qani?", "Fitna, puldan uzat!"*

Bu etnografema tadqiqotchilar tomonidan turli aspektlarda tekshirilgan. Masalan, tilshunos M.Yo'ldoshev badiiy matnning lingvopoetik tadqiqiga bag'ishlangan monografiyasida mazkur etnografemani intertekstuallikni yuzaga keltiruvchi vosita sifatida tilga olgan bo'lsa [Yo'ldoshev, 2019], A. Omonturdiyev murojaat vositalarining evfemalashtirilishi haqidagi fikrini dalillash jarayonida misol sifatida keltiradi. [Omonturdiyev, 2009]. Biz "g'ayrirasmiy" antroponimlarning kelib chiqish sabablarini izohlash maqsadida ayni etnografemadan foydalanamiz.

Turkiy xalqlarda nom berishning odatdagi tartib va talabidan tashqari, quyidagi sabablari ham mavjud: a) rasmiy nom bilan yashayotgan bola yoki o'smir surunkali kasal bo'laversa, "nomni ko'tarilmadi" deb o'zgartiriladi. Natijada, bola qo'shaloq nomga ega bo'lib qoladi. Bu nomning ikkinchisi saqlovchi nom sifatida faollashib ketadi; b) oilada bola turavermasa, tug'ilib nobud bo'lsa. Lekin bu qat'iy qoida emas. Abdulla Qahhorning avtobiografik asarida shunga o'xshash bir odat haqida yozilgan: "*Ukamga shu yerning o'zida ot qo'yadigan bo'ldik. Ammam "Ko'paysin", "Turg'un" degan nomlarni aytgan edi, dadam unamadi. — Qo'y, irim-chirimdan hech narsa ko'rmadim, Umarali qo'yamiz, - dedi*" (Qahhor, 2005: 78). Turkiy xalqlarda mazkur hodisa keng tarqalgan bo'lib, Chobanov tadqiqotlarida bunga oid bir necha dalilni keltiradi (Chobanov, 1983, 46).

Polinim antroponimiyaning yuzaga kelishida etnomadaniy omillarning ishtiroki shubhasizdir. Turkiy xalqlardan biri qolmiqlar hayotida mavjud bo'lgan bir odat qolmiq

antropologiyasida ayni hodisaning yuzaga chiqishiga sabab bo'lganligini tilshunos Omakayeva shunday bayon qiladi: "Qolmiqlar kelinlariga erining ismini aytish taqiqlanadi. Mazkur tabu erining qarindoshlariga nisbatan ham qo'llaniladi. Tabulash an'anasi tufayli "rasmiy" ism yangi "g'ayri rasmiy" ismlarni o'rtaga chiqaradi. Kelin er xonadoniga kelgan kundan boshlab to umrining oxirigacha eri va uning qarindoshlari ismini o'z bilganicha ataydi. Aleksey Balakayevning "Arvn urvn odr, arvn urvn jil" (O'n uch kun, o'n uch yil) deb nomlangan romanida shunday epizod bor: keksa ayoldan ismi va familiyasini so'raganlarida ismini aytishga aytadi, lekin familiyasiga kelgandan shunday deydi: "... men qanday qilib o'z erimning bobosining ismini aytishim mumkin, gunoh axir, aytolmayman" [6, 66]. Turkiy xalqlarda, xususan, o'zbeklarda din peshvolari, aziz avliyo va anbiyolarning, sahobai kiromlarning ismlariga ham alohida hurmat ko'rsatiladi. Mazkur shaxslarning ismlari oldidan yoki ismidan so'ng, hazrat, hazratim, xoja, xojam, pir, pirim kabi izohlovchilarning keltirilishi ana shunday etnomadaniy motivatsiya bilan izohlanadi. Tilshunos A. Omonturdiyev mazkur holatni tabu va evfemalashtirish natijasida hosil bo'lganligini ta'kidlaydi: "Nutqning etik-estetik talab normasi tabulashtirilgan, ochiq yoki to'g'ridan-to'g'ri tilga olish noqulay bo'lgan voqeliklar, xususan, eng ko'p murojaat vositalarining evfemalashtirilishiga asos bo'ladi". Olim fikrini tasdiqlash uchun quyidagi misolni keltiradi: "*Bu zot el orasida Bahouddin Balogardon, Devonai Bahouddini Buxoriy; ulamo va avliyolar orasida Bahouddin Muhammad Naqshband, Shayx Bahouddin ismlari bilan mashhur. Ul zotni shogirdlari, zamondoshlari va butun xalq pirning asl nomini tilga olishni beodoblik hisoblab, Hazrati xoja, Hazrat xojamiz deb ulug'lardilar*" (Omonturdiyev, 2009: 208). Keltirilgan parchadan ko'rinib turibdiki, polinim antroponimning o'rtaga chiqishi mazkur shaxsga nisbatan hurmatning balandligi bilan bog'liq. Ya'ni bu yerda tabu va evfemiya bevosita sabab bo'lolmaydi. Aytish mumkinki, xalq supersotsium sifatida muayyan etnomadaniy qoliqlar, qoidalar, an'ana va rasm-rusmlar doirasida harakatlanadi. Umuman, polinim antroponimiyaning yuzaga kelishida etnomadaniy omillarning ishtiroki keng bo'lib, turkiy xalqlarda bu hodisaning mushtarak jihatlari ko'p kuzatiladi. Qolaversa, antroponimlarning etnomadaniy asosini o'rganish orqali, ularning hozirgi holatini yanada aniq tasavvur qilishimiz mumkin bo'ladi. Hatto bugungi kunda iste'moldan butunlay chiqib ketgan ba'zi so'zlar, ba'zi ma'nolar, ba'zi tushunchalar ham antroponimik fondga u yoki bu shaklda saqlanib qolgan bo'ladi. Bu hodisa badiiy matnda ham u yoki bu shaklda aks etadi.

4. **Lingvopoetik jihatdan.** Badiiy matnda onomastik birliklar muayyan ob'yektning nomigina bo'lib qolmasdan, balki yozuvchining xilma-xil badiiy niyatlarini ta'kidlash uchun ham xizmat qiladi. Jumladan, ayrim qahramonlarning ism va familiyalari, laqablari (antropoetonimlar), joy nomlari (topopoetonimlar) va hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar (zoopoetonimlar) yozuvchi tomonidan atayin qo'llanib, asardagi muayyan badiiy maqsad ro'yobiga yordam beradi.

Onomastik birliklarning bu kabi ekspressiv xususiyatlarga egaligi ularning lingvopoetik xususiyatlarini alohida o‘rganishni talab qiladi.

Tilshunos A.Nurmonov shunday yozadi: “Badiiy adabiyotda qahramonlarning xarakteriga mos ism tanlashga harakat qilinadi. Masalan, “Tohir va Zuhro” dostonida Tohir – pokiza, nuqsonsiz; Zuhro – nurli, ko‘rkam; niyati qora bo‘lgan qahramonga esa Qorabotir deb ot qo‘yiladi. Ko‘rinadiki, ism insonning o‘z zurriyotiga bo‘lgan orzu-niyatining debochasi, badiiy asarlarda esa qahramon xarakteriga ishoradir. Demak, ismda gap ko‘p. Ismning tilsimini ochish, ma’nolarini belgilab berish katta amaliy ahamiyatga ega”.

Ism, familiya, otasim, laqab, taxallus hamda joy nomlari va hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlarning badiiy matndagi lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganish orqali bu birliklarning nominativ vazifasidan tashqari intertekstuallik, onomastik metafora, allyuziv nom, “so‘zlovchi” nom, sub’yektiv baho ifodalash kabi vazifalari, shuningdek, nomlarning ramziy ma’nolarda kelib, muayyan assotsatsiyalarga ishora qilishi kabi turli poetik maqsadlarda qo‘llanishi bo‘yicha o‘zbek tilshunosligida bir qator tadqiqotlar olib borildi. [Xudoyberganova, Andaniyazova: 2016; Andaniyazova: 2017]

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalq dostonlaridagi ayrim qahramon ismlarining tanlanishida ham badiiy maqsad bo‘ladi, ya’ni atoqli otlar (kishi ismlari)ga matn maqsadidan kelib chiqib okkazonal ma’no yuklanadi. Natijada, maqsadli tag ma’noli matn yuzaga keladi. Masalan: *Dingboy, Qing‘irboy, Chalaboy, Quvnoqboy, Yortiboy, Kuymasboy, Toymasboy, Daqqi, Dumaloq, Baxiloy, Kallaboy, Bo‘lakboy, Qanorboy* kabilarda xuddi shunday tag ma’no yotadi. Bu xalq og‘zaki ijodi namunalarida keng tarqalgan usul bo‘lib, odatda, ijobiy qahramonlar ismiga ijobiy, salbiy qahramonlar ismiga esa salbiy ma’no yuklanadi.

Badiiy adabiyotda ism ko‘pincha qahramon xarakteriga ishora qilib keladi. Qahramonlar, odatda, ismlarining mazmuniga mos xarakterga ega bo‘ladi. Mumtoz adabiyot namunalarini ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, ismiga munosib qahramonlarni deyarli barcha xalqlar adabiyotlarida uchratishimiz mumkin. Mashhur “Don Kixot” asarining qahramonlaridan biri Sanchoning laqabi Panso ana shunday ismi jismiga mos laqab bo‘lib, “ishkamba” ma’nosini bildiradi. E.Magazanik rus adabiyotidagi bir qator maqsadli qo‘llangan nomlarni tahlil qilib, ularning ismi, familiyasidan anglashilgan ma’nolarni qahramon xakteri, ruhiyati bilan bog‘laydi. Olim atoqli rus adibi F.Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” romanidagi bosh qahramonga berilgan *Radion Raskolnikov* antroponimida ham yozuvchining muayyan maqsadi borligini ta’kidlab, shunday fikr bildiradi: qahramonning ham ismi, ham familiyasida asar g‘oyasi bilan bog‘liq badiiy niyat ochiq ko‘rinib turadi. O‘quvchiga ma’lumki, qahramon jinoyatni bolta yordamida sodir etadi. “Raskolot” – “yormoq” fe’lidan yasalgan familiya va Radion – “radiy” – “kuchli kimyoviy

element” apellyativiga ega ism qahramonning xarakter va harakatlariga ishora qiladi. [Magazanik: 1978]

Bu holatni sharq og‘zaki va yozma adabiyotining mumtoz namunalarida ham istagancha uchratishimiz mumkin. Bizningcha, qahramonlarga ramziy nom berishning dastlabki go‘zal namunalari “Qutadg‘u bilig” asarida uchraydi. Bir qator tadqiqotchilar ham asardagi nomlar haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildirishgan. “*Kuntug‘di (chiqqan kun) – adolat timsoli bo‘lib, Elig o‘rnida, Oyto‘ldi (to‘lgan oy) – davlat timsoli bo‘lib, vazir o‘rnida, O‘gdulmish (aqli raso) – aql timsoli bo‘lib, vazirning o‘g‘li o‘rnida, O‘zg‘urmish (uyg‘ongan) – qanoat timsoli bo‘lib, vazirning qarindoshi o‘rnidadir*” .

Alisher Navoiy asarlaridagi *Jobir, Majnun, Layli, Iso, Yusuf, Farhod, Dilorom, Parichehra, Paripaykar* va boshqa ko‘plab antroponimlar nominativ ma’nosiga muvofiq xarakterlar bo‘lish barobarida muallifning uslubiy maqsadiga beminnat xizmat qiluvchi obrazlar sifatida ham diqqatga sazovor. Umuman, antroponimlarga lingvopoetik jihatdan yondashuv tilshunoslik uchun muhim ma’lumotlar berishi, shubhasiz.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, onomastikaning eng katta birliklaridan bo‘lgan antroponimlarda muayyan bir shaxs yoki etnosning tarixiy va ijtimoiy ahvoli haqidagi ma’lumotlar, ma’lum bir xalqning milliy-ma’naviy dunyosi, olam va hayot haqidagi tasavvurlaridan tarkib topgan axborotlar kodlangan bo‘ladi. Shu jumladan, o‘zbek xalqining antroponimlari ham lingvomadaniy jihatdan beqiyos ma’lumotlarni o‘zida jamlagan vositalardir. Ayniqsa, bunday vositalarning badiiy asarda qo‘llanilishi o‘ziga xos qonuniyatlarni namoyon qiladi. Badiiy asarlardagi antropoetonimlarni tadqiq qilishda atoqli otlar zamiridagi etnomadaniy izlarga alohida e’tibor qaratish zarur. Chunki atoqli otlar millatni o‘tmishdan kelajakka bog‘lovchi mustahkam, ayni paytda, qildan nozik ko‘priklaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:RO‘YXATI

1. Andaniyazova D. (2017) Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi. Filol. fan...falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Toshkent. – 52 b.
2. Ashimxanova F.M. (2007), Qazaq tilindegi antroponimderding lingvomedeni juyesi. Filol. fanlari kand. ...diss. Almati. – S. 145
3. Йўлдошев М. (2019) Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, “Ўзбекистон”. – 256 б.
4. Омакаева, Э.У. (2008), Триада “язык - культура – этнос” сквозь призму антропонимии: калмыцкие личные имена в контексте буддийской культуры. //Вестник Калмыцкого института гуманитарных исследований РАН. №2. – Б. 76-86.

5. Omonturdiyev A. (2009), Professional nutq evfemikasi (chorvadorlar nutqi misolida). Fil.fan.dok. – Toshkent. – 312 б.
6. Магазаник Э.Б. (1978), Ономапoэтика или “говорящие имена” в литературе. – Тoшкент: Фан. – 146 с.
7. Никонов В.А. (1974), Имя и общество. – М.: Наука.
8. Мухаммедова З.Б. (1973), Исследование по истории туркменского языка XI-XIV вв. – Ашхабад, 1973.
9. Xudoyberganova D., Andaniyazova D. (2016) O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent. – 138 b.
10. Qahhor A. (2005), O‘tmishdan ertaklar. – Toshkent, 2005.
11. Chobanov M. (1983), Azarbayjan antroponimiyasinin asaslari. – Tibilisi: Ganatleba. – С. 203.